

O‘ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA QISHLOQ HO‘JALIK MAHSULOTALARI ISHLAB CHIQRISHNING AHAMIYATI

Masharipova Fazilat Axmedovna

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali
Tabiiy fanlar kafedrasida o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishning ahamiyati tahlil qilingan bo‘lib, qishloq xo‘jaligini isloh qilish, bozor munosabatlarini rivojlantirish, sohaga investitsiyalarni jalb qilish va resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar o‘rganilgan. Tadqiqotda xalqaro tajribalar va mahalliy qishloq xo‘jaligi korxonalarining moliyaviy holati tahlil qilinib, O‘zbekiston sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning samarali yo‘llari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo‘jaligi, eksport, investitsiya, innovatsiya, raqobatbardoshlik.

Аннотация

В данной статье проанализирована значимость производства сельскохозяйственной продукции в обеспечении продовольственной безопасности Узбекистана. Рассмотрены проводимые меры по реформированию сельского хозяйства, развитию рыночных отношений, привлечению инвестиций в отрасль и внедрению ресурсосберегающих технологий. В исследовании изучен международный опыт и финансовое состояние местных сельскохозяйственных предприятий, а также предложены эффективные пути обеспечения продовольственной безопасности в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: продовольственная безопасность, сельское хозяйство, экспорт, инвестиции, инновации, конкурентоспособность.

Abstract

This article analyzes the importance of agricultural production in ensuring food security in Uzbekistan. The measures taken to reform agriculture, develop market relations, attract investment in the industry, and introduce resource-saving technologies are considered. The study examines the international experience and financial condition of local agricultural enterprises, as well as suggests effective ways to ensure food security in Uzbekistan.

Keywords: food security, agriculture, export, investment, innovation, competitiveness.

KIRISH

O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishning ahamiyati katta bo‘lib, bu mamlakatning iqtisodiyoti, ijtimoiy rivojlanishi va aholi turmush darajasining yaxshilanishi uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini isloh qilish, xususan sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta‘minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatda ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qulay agrobiznes muhitini va yuqori qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, sohaga bozor mexanizmlarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish hamda kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabr PF-5853 son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”¹gi Farmonida “oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta‘minlash va iste‘mol ratsionini yaxshilash, talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xarid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish, sifat nazorati infratuzilmasini rivojlantirish, eksportni rag‘batlantirish, maqsadli xalqaro bozorlarda raqobatbardosh, yuqori qo‘shilgan qiymatli qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o‘shishini qo‘llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko‘paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish” kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Amerikalik olim G.P. Nabhan o‘z tadqiqotlarida oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishda issiqroq va quruqroq yerlarda oziq-ovqat yetishtirish va uni iqlim noaniqligiga moslashish bo‘yicha o‘z tadqiqotlarida o‘rgangan [1].

Yevropalik olim Joe Essien tomonidan rivojlanayotgan iqtisodiyotda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda mahsulotlar importi va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash sinergiyasi borasida tadqiqotlar olib borilgan. U importning ko‘payishi qishloq xo‘jaligi korxonalarini ommaviy mexanizatsiyalash bilan shug‘ullanishi kerak deb hisoblaydi. Mamlakat import va mexanizatsiyalash siyosati bilan importga bog‘liq mamlakatga narxlarni manipulyatsiya qilish va qarshi strategik to‘siq qo‘yishga imkon beradigan raqobatbardosh munosabatlar paydo bo‘lishi mumkin. Shu sabablarga ko‘ra va boshqa qulay omillarga ko‘ra, oziq-ovqat importining qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash siyosati bilan sinergiyasi oziq-ovqat

¹ <https://lex.uz/docs/-4567334>

xavfsizligidagi o'zgarishlarni qayta qurish uchun moslashuvchan chora sifatida ham, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda barqarorlik vositasi sifatida ham tavsiya etiladi [2].

O'zbekistonlik olimlardan S. J. Dullayeva, T. T. Tursunov, D. T. Rizayeva, M. K. Suleymanova tomonidan mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasida sifatli go'sht va go'sht mahsulotlarini yetishtirishda ayrim talablar, tadbirlar, ularni joriy etish, go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'llari borasida tadqiqot olib borilgan [3].

J. S. Fayziyev, J. M. Qurbonovlar tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari fizik-kimyoviy xususiyatlari borasida tadqiqot olib borilgan bo'lib, mahsulotlarni ishlab chiqarish sharoitida amalga oshiriladigan tizimli va yuqori saviyadagi organoleptik, mikrobiologik va fizik-kimyoviy tadqiqotlar tayyor mahsulotlar sifatini talab darajasida saqlashni kafolatlashi o'rganilgan. Korxonalarida nazorat usullarini, xomashyo va tayyor mahsulotlarni sifat me'yorlarini yangi standartlariga muvofiq zamonaviy instrumental va ekspress usullari joriy qilish borasida tadqiqot ishlari olib borilgan [4].

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda iqtisodiy-statistik usullardan foydalangan holda, oziq-ovqat korxonalarida mahsulot raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi. Xalqaro tajribani baholashda qiyosiy tahlil, mahalliy oziq-ovqat korxonalarining moliyaviy holati tahlil qilinadi. Tadqiqotda foydalanilgan ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi hisobotlariga asoslanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish orqali mamlakat oziq-ovqatga bo'lgan ichki talabni qondiradi. Bu importga qaramlikni kamaytiradi va ishlab chiqarishning barqarorligini ta'minlaydi. O'zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligi asosan ichki ishlab chiqarishga tayanadi, bu esa narxlarning barqarorligini, inflyatsiyaning pasayishini va oziq-ovqatning arzonligini ta'minlaydi.

O'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlari eksportini kengaytirib, global bozorda o'z o'rnini mustahkamlamoqda. Sabzavot, meva, g'alla va boshqa mahsulotlarni eksport qilish mamlakat iqtisodini mustahkamlashga va xalqaro bozor bilan integratsiyani kuchaytirishga yordam beradi.

Qishloq xo'jaligi ko'plab odamlar uchun ish o'rinlarini yaratadi, ayniqsa qishloq hududlarida. Bu aholini bandligini ta'minlaydi va iqtisodiy o'sish uchun asos yaratadi. Qishloq xo'jaligi sohasida ishlovchi aholining farovonligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning muhim tarkibiy qismidir. Mamlakat ishlab chiqaradigan oziq-ovqat mahsulotlarining sifati, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Mahsulotlarni barqaror, ekologik toza va xavfsiz ishlab chiqarish amaliyotlarini joriy etish oziq-ovqatni zararli moddalar bilan ifloslanishidan himoya qiladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini diversifikatsiya qilish va ishlab chiqarishni samarali boshqarish oziq-ovqat zanjirining uzluksizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Qishloq xo'jaligida yangiliklar va innovatsiyalarni joriy etish orqali

mahsulotlarning yetishtirilishi, saqlanishi va tarqatilishida muammolarni kamaytirish mumkin. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning rivojlanishi oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda asosiy omil bo‘lib, bu mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorligini oshiradi. Oziq-ovqat sanoati O‘zbekistonda keng tarqalgan va uning ko‘plab tarmoqlari mavjud. Oziq-ovqat sanoati mamlakatning iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega va aholining oziq-ovqat bilan ta‘minlanishiga xizmat qiladi. Ekologik muammolarning keskinlashuvi va dunyo aholisi sonining oshib borishi oziq-ovqat xavfsizligini eng muhim muammolardan biriga aylantirdi. Mazkur muammoni yechishda qishloq xo‘jaligi-ishlab chiqarish — oziq-ovqat tizimini ta‘minlash modellashtirish talab qiladi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda yerdan foydalanish, atrof-muhit va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlardagi o‘zgarishlar asosiy omillar sifatida qaraladi. Biroq, bunday o‘zaro ta‘sirni modellashtirishda nohiziqli modellardan foydalanish samarali hisoblanadi.

So‘ngi yillarda O‘zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasida sezilarli darajada o‘shirishga erishilmoqda. Bu jarayon, asosan, qishloq xo‘jaligi va sanoatning o‘zaro integratsiyasi, yangi texnologiyalarni joriy etish, eksportni oshirish va ichki bozorni to‘ldirish bilan bog‘liq holda rivojlanmoqda. Mamlakat oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy ishlab chiqaruvchisi — bu qishloq xo‘jaligi bo‘lib, bu sektorda bug‘doy, makkajo‘xori, guruch, paxta, sabzavotlar va mevalar kabi turli mahsulotlar yetishtiriladi. Qishloq xo‘jaligi ekinlarining samarali yetishtirilishi oziq-ovqat sanoatining rivojlanishiga yordam beradi.

O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi sektori so‘ngi yillarda modernizatsiya qilinmoqda. Donli mahsulotlar ishlab chiqarish uchun yangi texnologiyalar va zamonaviy usullar joriy etilmoqda. Qishloq xo‘jaligi suv resurslaridan samarali foydalanish, o‘g‘itlar va pestitsidlar bilan ishlashda yaxshilanishlar kiritilmoqda. Bu esa mahsulotlarning sifatini oshirish va hosildorlikni yaxshilashga yordam bermoqda. Mamlakatda donli mahsulotlar ishlab chiqarish juda muhim va rivojlanayotgan soha hisoblanadi.

O‘zbekiston, qishloq xo‘jaligi va agro-sanoat tarmoqlari bo‘yicha juda boy resurslarga ega bo‘lib, donli mahsulotlarni yetishtirishda ham katta imkoniyatlarga ega.

Mamlakatda donli mahsulotlari ishlab chiqarishda yetakchi hududlar Farg‘ona, Jizzax, Andijon va Surxondaryo viloyatlari tashkil qilib, 2023-yilda 8453,4 ming tonna ishlab chiqildi. Hududlar kesimida eng ko‘p ko‘rsatgich Farg‘ona viloyatida 943,9 ming tonnani, eng kam ko‘rsatgich Toshkent shahrida 100 tonnani tashkil etdi.

Mamlakatning donli mahsulotlar ishlab chiqarishining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bug‘doy hisoblanadi. Mamlakatda bug‘doy ishlab chiqarish katta ahamiyatga ega, chunki bug‘doy — bu xalqning asosiy oziq-ovqat mahsulotlaridan biri bo‘lib, non va boshqa mahsulotlarni tayyorlashda ishlatiladi. Bug‘doy ekinlari O‘zbekistonda deyarli barcha hududlarda yetishtiriladi, lekin eng ko‘p ishlab chiqarish Farg‘ona vodiysi, Samarqand, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida amalga oshiriladi.

Mamlakatda bug‘doy mahsulotlari ishlab chiqarish 2020-yilda 6157,8 ming tonna, 2021-yilda 5984,8 ming tonna, 2022-yilda 6270,1 ming tonna, 2023-yilda

6471,2 ming tonna yetishtirilib, 2023-yilda 2020-yilga nisbatan 105,1 foizga o'sdi. Mamlakat hududlar bo'yicha 2023-yilda 2020-yilga nisbatan eng yuqori o'sish Xorazm viloyatida 112,3 foizga o'sgan bo'lsa, eng past natijani Jizzax viloyati tashkil qilib, 83,9 foizni tashkil etdi. Mamlakatda asosiy bug'doy yetishtirishda eng ko'p Samarqand viloyatida tashkil qilib, 703,1 ming tonnani tashkil etdi. 2023-yilda eng kam bug'doy yetishtirish Navoiy viloyatida 220,9 ming tonna, Sirdaryo viloyatida 377,2 ming tonnani tashkil etdi.

1-jadval

O'zbekistonda bug'doy mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari (Ming tonna)¹

№	Hududlar	2020 y	2021y	2022y	2023y	2023-yilni 2020-yilga nisbati %
1.	O'zbekiston Respublikasi	6157,8	5984,8	6270,1	6471,5	105,1
2.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	175,7	147,2	173,7	181,5	103,3
3.	Andijon viloyati	511,8	519,5	544,6	549,1	107,3
4.	Buxoro viloyati	428,8	460,7	481,2	481	112,2
5.	Jizzax viloyati	606,9	533,5	500,1	509,1	83,9
6.	Qashqadaryo viloyati	839,2	724,5	744,1	758,7	90,4
7.	Navoiy viloyati	204,8	212,1	216,7	220,9	107,9
8.	Namangan viloyati	420,3	436	475,4	489,6	116,5
9.	Samarqand viloyati	674,4	664,2	670	703,1	104,3
10.	Surxondaryo viloyati	595,7	627,5	640,3	652,7	109,6
11.	Sirdaryo viloyati	359,7	362,6	376,3	377,2	104,9
12.	Toshkent viloyati	446,1	418,1	472,1	507,3	113,7
13.	Farg'ona viloyati	612,4	614,4	686,7	724,7	118,3
14.	Xorazm viloyati	282	264,2	288,9	316,6	112,3
15.	Toshkent shahri	0	0,3	0	0	0

O'zbekistonning janubiy hududlarida, xususan Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida guruch yetishtiriladi.

Bu mahsulotning ishlab chiqarilishi va eksporti o'sib bormoqda. Respublikada gurunch yetishtirish 2023-yilda 355,7 ming tonnani tashkil qilib, 2020-yilga nisbatan 121,1 foizga o'sishga erishildi. Sholi yetishtirishda eng yetakchi hududlar Xorazm viloyatida 145,2 ming tonna, Andijon viloyatida esa 40,2 ming tonnani tashkil qildi. Hududlar kesimida Navoiy viloyatida 300 kilogramm, Samarqand viloyatida 200 kilogramm, Jizzax viloyatida 700 kilogrammni tashkil qilgan bo'lsa, Toshkent shahri va Qashqadaryo viloyatlarida sholi mahsulotlari yetishtirilmagan. Bundan ko'rinadiki, hududlarda gurunch mahsulotlariga bo'lgan talab mavjudligini, iste'molchilar talabini import hisobiga qoplashni anglatadi. O'zbekistonda sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida sezilarli o'sish kuzatilmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari

2023-yilda barcha xo‘jaliklar tomonidan 11553,7 ming tonna sabzavotlar yetishtirilgan bo‘lib, bu 2022-yilning shu davriga nisbatan 103,9% ga ko‘paygan. Hududlar kesimida Andijon viloyati 1,7 million tonna bilan yetakchilik qilmoqda. Samarqand viloyati 1,5 million tonna bilan ikkinchi o‘rinda, Farg‘ona viloyati esa 1,3 million tonna bilan uchinchi o‘rinda turadi. Eng past ko‘rsatgichlar Toshkent shahriga to‘g‘ri kelib, 1 ming tonnani tashkil etdi.

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida jami sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘rsatgichlari¹

№	Hududlar	2020 y	2021 y	2022 y	2023 y	2023-yilni 2022-yilga nisbati
1.	O‘zbekiston Respublikasi	10431,4	10850,2	11162,9	11553,7	103,5
2.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	286,8	301,5	319,1	333,3	104,5
3.	Andijon viloyati	1611,1	1676,4	1730,6	1772,6	102,4
4.	Buxoro viloyati	768,7	831,8	889,5	914,6	102,8
5.	Jizzax viloyati	425,3	436,5	454,3	472,9	104,1
6.	Qashqadaryo viloyati	493,1	496	533,9	559,3	104,8
7.	Navoiy viloyati	291,3	304,4	320,4	335	104,6
8.	Namangan viloyati	831,9	886	951	989,3	104,0
9.	Samarqand viloyati	1636,3	1643	1533,7	1576,7	102,8
10.	Surxondaryo viloyati	1013,6	1096,6	1145,6	1169,2	102,1
11.	Sirdaryo viloyati	309,1	323,2	294,2	302,6	102,9
12.	Toshkent viloyati	1038,9	1039,6	1101,5	1154,7	104,8
13.	Farg‘ona viloyati	1128,6	1193,9	1249,9	1319,1	105,5
14.	Xorazm viloyati	596,2	620,5	638,2	653,4	102,4
15.	Toshkent shahri	0,5	0,8	1	1	100,0

O‘zbekistonda sabzavotlar (pomidor, bodring, kartoshka) va mevalar (anor, olma, uzum) ishlab chiqarishda yetakchi hisoblanadi.

Meva va sabzavotlarning eksporti, xususan Rossiya va Yevropa bozorlariga chiqishda jadallik bilan ishlab olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlariga ko‘ra, shuningdek, PMTI ekspertlari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, O‘zbekistonning o‘rik, olcha, gilos, shaftoli, olxo‘ri, uzum, quritilgan mevalar, konservalangan sabzavotlar, quritilgan sabzavotlar va dukkaklilar kabi mahsulotlar jahon bozorida yuqori raqobatbardosh ekanligi aniqlangan [5].

Mamlakatdagi mavjud tabiiy-iqlim sharoiti qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini, xususan, meva-sabzavotchilikni barqaror rivojlantirish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi.

Bularga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-mart PF-5388 son “O‘zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi¹ va 2019-yil 23-oktyabr PF-5853 son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi² Farmonlari hamda 2018-yil 17-oktyabr PQ-3978 son “Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi³, 2019-yil 14-mart PQ-4239 son “Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi⁴ Qarorlarini keltirish mumkin.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda mamlakatda yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy qilish muhim ahamiyat kasb etib, u sohada ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, aholini talab ehtiyojlarini ta‘minlaydi. Yangi texnologiyalar va innovatsion usullarni joriy etish oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda samaradorlikni oshiradi. Bularga misol qilib:

✓ Dronlar va aqlli texnologiyalar qishloq xo‘jaligida dronlar va aqlli texnologiyalar orqali hosilni monitoring qilish, sug‘orish tizimlarini optimallashtirish va ekinlar holatini kuzatish imkoniyatlari yaratilmoqda.

✓ Mahsulotlarni qayta ishlash va saqlash jarayonida yangi texnologiyalarni qo‘llash orqali oziq-ovqat sifatini yaxshilash va isrofgarchilikni kamaytirish mumkin.

O‘zbekistonning oziq-ovqat mahsulotlari eksporti ham o‘sib bormoqda. Mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilish, asosan, Rossiya, Qozog‘iston, Eron, Turkmaniston va boshqa Markaziy Osiyo davlatlariga yo‘naltirilgan. Eksportda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, go‘sht, sut mahsulotlari va mevalar yetkazib beriladi. O‘zbekistonning oziq-ovqat eksporti qator yirik bozorlarda o‘sib bormoqda.

O‘zbekistonda donli mahsulotlar ishlab chiqarish sektori rivojlanishda davom etmoqda. Mamlakatda asosiy e‘tibor bug‘doy, makkajo‘xori va arpa ishlab chiqarishga qaratilgan. O‘zbekistonning ichki ehtiyojini qondirish, shuningdek, donli mahsulotlar eksportini kengaytirish imkoniyatlari mavjud. O‘zbekistonda ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va eksport bozorlaridagi ulushni oshirishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu mamlakatning iqtisodiy o‘sishi, ijtimoiy rivojlanishi va aholi turmush darajasining yaxshilanishiga bevosita ta‘sir qiladi. Qishloq xo‘jaligini isloh qilish bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-mart PF-5388 son “O‘zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-3604601>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabr PF-5853 son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-4567334>

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 17-oktyabr PQ-3978 son “Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/docs/-3897678>

⁴ <https://lex.uz/docs/-4242004> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-mart PQ-4239 son “Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori lex.uz/docs/-4242004

jumladan, bozor mexanizmlarini keng joriy etish, huquqiy bazani mustahkamlash, investitsiyalarni jalb qilish va zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Mamlakatda ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish va eksport salohiyatini oshirish yo'nalishidagi sa'y-harakatlar global bozorda O'zbekistonning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish orqali mamlakat oziq-ovqatga bo'lgan ichki talabni qondirish bilan birga, importga qaramlikni kamaytirishga ham erishmoqda. Bundan tashqari, oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va ekologik tozaligini ta'minlash orqali iste'molchilar salomatligi va oziq-ovqat xavfsizligi kafolatlanmoqda.

Mazkur tadqiqot asosida quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik:

1. Innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish – qishloq xo'jaligidagi zamonaviy texnologiyalar va ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish mahsulot sifatini oshirish, resurslardan tejamkor foydalanish va hosildorlikni ko'paytirishga yordam beradi.

2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini diversifikatsiya qilish – eksport salohiyatini kengaytirish va ichki bozorda barqarorlikni ta'minlash uchun turli mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish zarur.

3. Mahsulotlar sertifikatitsiyasi va sifat nazoratini kuchaytirish – xalqaro standartlarga javob beradigan oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash tizimini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

4. Kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash – qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoatida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlariga davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish lozim.

5. Agrologistika infratuzilmasini rivojlantirish – qishloq xo'jalik mahsulotlarini samarali saqlash, transport va eksport qilish tizimlarini rivojlantirish orqali bozordagi barqarorlikni ta'minlash mumkin.

6. Qishloq xo'jaligidagi kadrlar salohiyatini oshirish – sohaga ilg'or bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislarni jalb etish hamda ularning malakasini oshirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqish zarur.

7. Barqaror ekologik yondashuvlarni qo'llash – qishloq xo'jaligi jarayonlarida ekologik xavfsiz texnologiyalar va organik mahsulot yetishtirish usullarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish orqali O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, qishloq xo'jaligi tarmog'ini barqaror rivojlantirish va xalq farovonligini oshirishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nabhan G. P. *Growing food in a hotter, drier land: lessons from desert farmers on adapting to climate uncertainty*. – Chelsea Green Publishing, 2013.

2. Essien J. *Ensuring Food Security: A Synergy Of Food Importation And Agricultural Mechanization In Developing Economies*. 2019.

3. Suleymanova M. K. et al. *Sifatli go'sht va go'sht mahsulotlari yetishtirishdagi ayrim tadbirlar* // Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali. – 2023. – C. 123-129.

4. J. S. Fayziyev, J. M. Qurbonov. *Oziq-ovqat mahsulotlari tadqiqotining fizik-kimyoviy uslublari* «Xizmat ko'rsatish» sohasidagi «Servis» ta'lim yo'nalishi uchun o'quv qo'llanma. Toshkent — «ILM ZIYO» — 2009.

5. <https://review.uz/uz/post/ozbekistonda-meva-sabzavotlikni-rivojlantirish-tendenciyalari-va-istiqbollari?utm>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournlbot](https://t.me/marketinjournlbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**